

INGLIZ NAQL VA MAQOLLARINING BADIY XUSUSIYATLARI

Z.X.Elmuratova – *assistent o'qituvchi*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ АНГЛИЙСКИХ
ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОВ**

З.Х.Ельмуратова – *ассистент преподаватель*
Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза

ARTISTIC CHARACTERISTICS OF ENGLISH PROVERBS AND ARTICLES

Z.Kh.Elmuratova – *assistant teacher*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: naql, til, muhim, tarix, madaniy, vazifa, urf-odat, avlod, ramz, asos.

Rezyume. Ushbu maqolada ingliz tilidagi naql va maqollarning badiiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada naql-maqollarning xalq donishmandligini ifodalovchi, obrazli va ixcham badiiy birliklar sifatidagi o'rni yoritilgan. Ingliz naql-maqollari nafaqat lingvistik birlik, balki badiiy-estetik hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ключевые слова: пословица, язык, важный, история, культурный, функция, традиция, поколение, символ, основа.

Резюме. Данная статья посвящена изучению художественных особенностей английских пословиц и поговорок. В статье раскрывается роль пословиц и поговорок как образных и лаконичных художественных единиц, выражающих народную мудрость. Английские пословицы и поговорки являются не только лингвистическими единицами, но и важным художественно-эстетическим явлением.

Key words: proverb, language, important, history, cultural, function, tradition, generation, symbol, basis.

Summary. This article is devoted to the study of the artistic features of English proverbs and sayings. The article highlights the role of proverbs and sayings as figurative and concise artistic units that express folk wisdom. English proverbs and sayings are not only linguistic units but also represent an important artistic and aesthetic phenomenon.

Kirish. Naql-maqollari har qanday tilning ajralmas qismi bo'lib, qadimiy tarix va madaniyatning aksidir. Ular xalq og'zaki ijodining bir qismi hisoblanib, xalq donishmandligini obrazli tarzda ifodalash, xalqning tarixi va dunyoqarashini, uning an'analari, urf-odatlari hamda qadriyatlarini yoritish imkonini beradi. Ingliz naql-maqollari bu xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, madaniy qadriyatlarini, axloqiy me'yorlari va dunyoqarashini qisqa, lo'nda hamda obrazli shaklda ifodalovchi barqaror til birliklaridir.

Ingliz tilida yuzlab naql-maqollar mavjud. Naql-maqollar ko'plab avlodlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida shakllanib, rivojlanib va takomillashib kelgan.

Ingliz naql-maqollari ingliz xalqining an'analari, urf-odatlari va e'tiqodlari asosida yuzaga kelgan, shuningdek, ingliz tarixidagi turli voqeliklar va faktlar negizida shakllangan. Umuman olganda, ingliz tilidagi naql-maqollar, boshqa tillardagi kabi, xalq ijodining mahsuli bo'lib, xalq donishmandligi va tilga bo'lgan nozik didining namoyonidir.

Naql-maqollar avloddan-avlodga og'zaki va yozma nutq orqali o'tib, ingliz tilining frazeologik va paremiologik boyligining muhim qismi hisoblanadi. Naql-maqollar nutqni ta'sirchan, mazmunli va mantiqan kuchli qilishda xizmat qiladi hamda ijtimoiy, axloqiy va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mashhur ingliz paremiologi Archer Taylor maqollarni "xalq donishmandligining eng ixcham va mukammal ifodasi" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, maqollar millat tafakkurining tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklardir [3].

Tilshunos Wolfgang Mieder ingliz maqollarini madaniyat va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatuvchi vosita sifatida baholab, ularni jamiyatning axloqiy qarashlari va ijtimoiy me'yorlarini mustahkamlovchi omil deb hisoblaydi. Unga ko'ra, maqollar faqat til hodisasi emas, balki madaniy fenomen hamdir [1].

Tilshunos Neal R. Norrick ingliz maqollarining badiiy ta'sirchanligini ularning fonetik tuzilishi bilan izohlaydi. Uning fikricha, qofiya, ritm va tovush takrori maqollarning og'zaki nutqda tez tarqalishi va uzoq vaqt saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Norrick maqollarni faqat semantik emas, balki fonostilistik birlik sifatida ham baholash lozimligini qayd etadi [4].

Kognitiv tilshunos Raymond W. Gibbs maqollar-dagi ramziy va metaforik ifodani inson tafakkurining mahsuli sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, ingliz maqollarida qo'llaniladigan badiiy vositalar abstrakt tushunchalarni (vaqt, omad, mehnat, axloq) konkret obrazlar orqali anglash imkonini beradi. Bu esa maqollarning badiiy va falsafiy chuqurligini ta'minlaydi [7].

Richard P. Honeck maqollarni xalq donishmandligining estetik ifodasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, ingliz maqollarining badiiy xususiyatlari ularning madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liqligida namoyon bo'ladi. Maqollar orqali xalqning hayotga munosabati, qadriyatlari va axloqiy me'yorlari badiiy shaklda aks etadi [5].

Asosiy qism. Ingliz naql-maqollari xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari va axloqiy qadriyatlarini badiiy jihatdan mukammal shaklda ifodalovchi paremiologik birliklar hisoblanadi. Ularning badiiy xususiyatlari maqollarning qisqa, lo'nda va obrazli tuzilishida, shuningdek, chuqur ma'no yuklay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ingliz maqollari tilning estetik imkoniyatlaridan samarali foydalanib, fikrni bevosita emas, balki badiiy vositalar orqali ifodalaydi.

Badiiylik maqollarda nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki ularning mazmunini kuchaytirib, esda qolishini osonlashtiradi hamda nutqdagi ta'sirchanlik darajasini oshiradi. Shu bois ingliz maqollari lingvistik birlik bo'lish bilan birga, badiiy-estetik hodisa sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

1. Ingliz maqollarining eng muhim badiiy-stilistik belgilaridan biri **obrazlilik** hisoblanadi. Obrazlilik til vositalari yordamida mavhum tushunchalar, ijtimoiy-axloqiy g'oyalar va insoniy munosabatlarning aniq, ko'zga ko'rinadigan tasvirlar orqali ifodalanishida namoyon bo'ladi. Ushbu xususiyat maqollarning badiiy ta'sirchanligini oshiradi va ularni xalq og'zaki ijodining muhim estetik vositasiga aylantiradi.

Ingliz maqollarida obrazlilik asosan metafora, ramz va qiyos asosida shakllanadi. Mavhum tushunchalar (hasad, qoniqmaslik, mehnat, sabr, aql) kundalik hayotda tez-tez uchraydigan predmet va hodisalar bilan bog'lanadi. Masalan: **"The grass is always greener on the other side of the fence"**. Mazkur maqolda *grass* (yashil maysa) - farovonlik va baxt ramzi, *fence* (panjara) esa shaxsiy hayot chegarasini ifodalaydi. Ushbu obrazlar orqali insonning boshqalarning hayotini o'zidan afzal deb bilishi badiiy va ta'sirchan tarzda tasvirlanadi [4].

Ingliz maqollarida tabiat unsurlari obrazlilikning muhim manbai hisoblanadi. *Tabiat obrazlari* orqali inson xarakteri va ijtimoiy munosabatlar ochib beriladi. Masalan: **"Still waters run deep"**. Bu maqolda sokin suvlar obrazi kamgap, ammo chuqur fikrli insonlarni ifodalaydi. Suvning tashqi sokinligi va ichki chuqurligi orqali inson tafakkurining teranligi tasvirlanadi [3].

Hayvonlar obrazlari ingliz maqollarida inson xulq-atvori va ijtimoiy sifatlarini ifodalashda keng qo'llanadi. Masalan: **"The early bird catches the worm"**. Bu maqolda qush mehnatsevar va chaqqon insonni, qurt esa imkoniyat yoki muvaffaqiyatni ramziy tarzda ifodalaydi.

Ingliz maqollarida *oddiy buyumlar* ham kuchli badiiy obrazga aylanadi. Bu usul mavhum tushunchalarni yanada aniqroq va tushunarli qiladi. Masalan: **"Don't put all your eggs in one basket"**. Bu maqolda savat va tuxum obrazlari tavakkalchilik va ehtiyotkorlik tushunchalarini ifodalaydi [3].

Obrazlilik ingliz maqollarining **kognitiv samaradorligini** oshiradi, ya'ni murakkab tushunchalar oddiy obrazlar orqali tez idrok etiladi. Shu bilan birga, obrazlar maqollarning **didaktik vazifasini** kuchaytiradi va axloqiy xulosani yodda qolarli qiladi. Masalan: **"You can't make an omelette without breaking eggs"**. Bu maqolda tuxumni sindirish obrazi qurbonlik va muqarrar qiyinchilik g'oyasini ifodalaydi.

2. Ko'plab ingliz maqollari **metafora** asosida qurilgan bo'lib, bu ularning badiiy-estetik qiymatini hamda semantik chuqurligini sezilarli darajada oshiradi. Metafora til birliklarining bevosita ma'nosidan chetga chiqib, mavhum tushunchalarni aniq va hayotiy obrazlar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz maqollarida metafora inson hayoti, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy qadriyatlarni umumlashtirilgan holda ifodalovchi asosiy badiiy vosita hisoblanadi [8].

Metafora ingliz maqollarida murakkab va mavhum tushunchalarni oddiy, kundalik predmetlar bilan qiyoslash orqali tushunarli qiladi. Bu jarayonda metafora **kognitiv mexanizm** sifatida ishlaydi va inson tafakkurini faollashtiradi. Masalan: **"Life is not a bed of roses"**. Mazkur maqolda hayot *bed of roses* (atirgul to'shagi) bilan qiyoslanadi. Atirgul qulaylik va go'zallik ramzi bo'lib, inkor shaklida qo'llanishi hayotning doim ham oson va rohat-farog'atga boy emasligini ta'kidlaydi.

Ingliz maqollarida metafora ko'pincha *vaqt, o'tgan voqealar* va *insoniy kechinmalarni* ifodalashda qo'llanadi. Masalan: **"Don't cry over spilled milk"**. Bu maqolda *spilled milk* (to'kilgan sut) - o'tmishda sodir bo'lgan, qaytarib bo'lmaydigan holat ramzidir. Metafora orqali insonni bekor afsuslanishdan tiyilish va kelajakka e'tibor qaratishga undash g'oyasi ilgari suriladi.

Ingliz maqollarida metafora *mehnat* va *muvaffaqiyat* o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalashda keng qo'llanadi. Masalan: **"No pain, no gain"**. Bu yerda *pain* (og'riq) qiyinchilik va mehnatni, *gain* esa muvaffaqiyat va foydani ramziy ifodalaydi [5].

Metaforalar ingliz maqollarida *axloqiy g'oyalarni* mustahkamlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan: **"The pot calls the kettle black"**. Bu maqolda idishlar obrazi orqali ikkiyuzlamachilik tanqid qilinadi.

3. Ingliz naql va maqollarining badiiy xususiyatlaridan biri ular **qisqa, ixcham shaklda keng mazmunda** ifodalanadi. Bu xususiyat maqollarga bir qator stylistik va kognitiv afzalliklar beradi: ularni nutqda tez qo'llash, xotirada saqlash va ta'sirchan

ifodalash imkoniyati oshadi. Qisqalik maqollarning badiiy qiymatini kamaytirmaydi, aksincha, semantik zichlikni oshirib, mazmunning aniq va lo'nda yetkazilishiga xizmat qiladi.

Ingliz maqollarining qisqalik xususiyati ularning *umumlashtiruvchi semantikasini* kuchaytiradi. Bir necha leksik birlik orqali hayotiy qonuniyatlar, axloqiy qadriyatlar va insoniy tajriba ifodalanadi. Masalan: **“Practice makes perfect”**. Mazkur maqol juda ixcham tuzilishga ega, lekin mehnat, takroriy mashq va mukammallikka erishish g'oyasini umumlashtiradi. Har bir so'z semantik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Qisqa va ixcham maqollar inson tafakkuriga tezkor ta'sir qiladi, ularni xotirada saqlash osonlashadi. Shu bilan birga, ularning *didaktik funktsiyasi* kuchayadi, ularni ogohlantirish, maslahat berish yoki axloqiy xulosa chiqarish uchun ishlatish qulay.

“Actions speak louder than words”. Nutq va amallar o'rtasidagi tafovut qisqa, ixcham va yodda qoladigan tarzda taqdim etiladi.

Qisqalik ingliz maqollarining badiiy qiymatini oshiradi. Ixcham shaklda berilgan obraz va metaforalar *ta'sirchanlik va estetik qiymatni kuchaytiradi*, chunki har bir so'z mazmunni aniq va hayotiy tasvir orqali yetkazadi. Masalan:

“Still waters run deep.” Kamgap insonning chuqur tafakkuri va dono xulqi qisqa, ixcham shaklda berilgan.

4. Ba'zi ingliz maqollarida **qofiya, alliteratsiya va ritmik tuzilish** mavjud bo'lib, bu ularning esda qolishini ta'minlaydi. Fonostilistik vositalar maqollarning badiiy ta'sirchanligi, nutqda samarali ishlatilishi va xotirada uzoq saqlanishiga yordam beradi [8].

Qofiya va tovush takrorlari maqollarning *ohangdorligi va ritmik uyg'unligini* oshiradi. Shu bilan birga, ular maqol mazmunini yodda saqlashni osonlashtiradi va nutqda e'tiborni jamlashga yordam beradi. Masalan:

“Haste makes waste.” Bu maqolda *haste* va *waste* so'zlari qofiya hosil qiladi. Qofiya va tovush takrorlari maqolning badiiy ta'sirini kuchaytiradi va ogohlantiruvchi mazmunini yodda qoladigan qiladi.

Ritm maqollarda *so'zlar ketma-ketligi va ohang uyg'unligi* orqali yuzaga chiqadi. Ritmik tuzilish:

- maqol mazmunini yodda saqlashni osonlashtiradi,

- eshituvchida estetik qoniqish uyg'otadi,

- ma'lumotni tez va samarali yetkazadi.

“Early to bed and early to rise makes a man healthy, wealthy and wise.” Bu maqolda ritm va sanash usuli (*healthy, wealthy, wise*) orqali sog'lom turmush tarzining afzalliklari kuchli va esda qoladigan shaklda targ'ib qilinadi.

Qofiya va ritm nafaqat maqolni esda qoladigan qiladi, balki *semantik ta'sirni kuchaytiradi* va badiiy qiymat beradi:

- qisqa va ixcham shakldagi fikr ohangdorlik bilan kuchayadi,

- maqol nutqda samarali ishlatiladi,

- eshituvchi yoki o'quvchi mazmunni oson idrok etadi.

“All's well that ends well.” Qofiya va ritm maqolga badiiy ohang beradi va esda qolish imkonini oshiradi.

Fonostilistik vositalar maqollarning *didaktik va pragmatik vazifasini* yanada samarali qiladi. Masalan, maqol ogohlantirish, maslahat berish yoki axloqiy xulosa berayotganda qofiya va ritm orqali *ta'sirchanlik va tushunarlik* kuchayadi.

“Early to bed and early to rise makes a man healthy, wealthy and wise” - sog'lom turmush tarzining ahamiyati ritmik tuzilish orqali ta'kidlanadi.

5. Ingliz maqollarida fikrni kuchaytirish va mazmunni aniq yetkazish uchun **qarama-qarshi tushunchalarni taqqoslash (antitezis) va qiyoslash (comparison)** usullari keng qo'llaniladi. Bu stilistik vositalar maqollarning badiiy ta'sirchanligini, semantik chuqurligini va didaktik samaradorligini oshiradi.

Antitezis – qarama-qarshi yoki ziddiy tushunchalarni bir gap yoki jumla ichida qo'yish orqali fikrni kuchaytirish usulidir. Ingliz maqollarida antitezis yordamida *ogohlantirish, nasihat yoki axloqiy xulosa* samarali tarzda yetkaziladi. Masalan:

“Better safe than sorry”. Bu maqolda *safe* (ehtiyotkor) va *sorry* (pushaymon) tushunchalari qarama-qarshi qo'yilgan. Natijada maqol ehtiyotkorlikning muhimligini oddiy va esda qoladigan tarzda ifodalaydi [5].

Qiyoslash – ikki yoki undan ortiq predmet, holat yoki tushunchani solishtirib, o'xshashlik yoki farqni ko'rsatish. Ingliz maqollarida qiyoslash *umumiy hayotiy qonuniyatlarni* ochib berish va didaktik ta'sirni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

“Easy come, easy go.” Keltirilgan narsa va uning ketishi o'rtasidagi o'xshashlik orqali hayotiy haqiqat ifodalanadi.

Antitezis va qiyoslash ko'pincha *qofiya, ritm va alliteratsiya* bilan birgalikda ishlatiladi, bu esa maqolning badiiy ohangini oshiradi [8]. Masalan:

“See no evil, hear no evil, speak no evil.” -takror va qarama-qarshi tushunchalar birlashgan holda, esda qoladigan badiiy effekt yaratadi [7].

6. Ingliz naql va maqollarining muhim badiiy xususiyatlaridan biri shundaki, ular individual holatlar yoki shaxsiy tajribalarni emas, balki **umumiy hayotiy qonuniyatlarni** badiiy, ramziy va falsafiy shaklda ifodalaydi. Maqollar inson tajribasi va jamiyat me'yorlariga asoslanib, umumiy qoidalar va axloqiy prinsiplarni yodda qoladigan va ta'sirchan shaklda yetkazadi.

Ingliz maqollarida inson amallari va ularning natijasi o'rtasidagi bog'liqlik ko'pincha falsafiy va ramziy shaklda tasvirlanadi. Masalan: “What goes

around comes around”. Bu maqolda insonning qilgan amallari oxir-oqibat unga qaytadi, ya’ni axloqiy muvozanat va sabab-natija qonuniyati ramziy tarzda ifodalanadi. *Goes around* va *comes around* iboralari aylanish va tsiklik obrazini hosil qiladi, bu esa maqolning badiiy-estetik ta’sirini oshiradi.

Ko‘plab ingliz maqollarida individual holat ko‘rsatilmaydi, balki *axloqiy qadriyatlar umumiy shaklda* ifodalanadi. Shu orqali maqol didaktik va tarbiyaviy funksiyasini samarali bajaradi. Masalan:

“A stitch in time saves nine”. Vaqtida amalga oshirilgan kichik harakatlar kelajakdagi muammolarni kamaytiradi. Bu umumiy hayotiy qonuniyatni qisqa va esda qoladigan shaklda ifodalaydi [4].

Umumiy hayotiy qonuniyatlar ko‘pincha *falsafiy, ramziy va metaforik shaklda* ifodalanadi. Bu maqol-larga badiiy ohang va estetik ta’sir beradi. Masalan:

“All that glitters is not gold.” Tashqi ko‘rinish va haqiqat o‘rtasidagi farq umumiy hayotiy qonun sifatida ramziy tarzda ifodalanadi.

Umumiy hayotiy qonuniyatlarni ifodalashda ingliz maqollari *qisqalik, obrazlilik va ramziy shaklni* uyg‘unlashtiradi. Shu sababli, maqol tez esda qoladi,

nutqda samarali ishlatiladi va o‘quvchi yoki eshituvchida fikrni anglash va xulosa chiqarish jarayonini osonlashtiradi. Masalan:

“Better late than never” – kech bo‘lsa ham harakat qilish yaxshiroq ekanligini badiiy tarzda umumlashtiradi [6].

Xulosa. Ingliz tilidagi naql-maqollar har qanday tilning ajralmas qismi bo‘lib, xalqning qadimiy tarix, madaniyat va dunyoqarashini aks ettiruvchi badiiy-estetik birliklardir. Ular xalq donishmandligini obrazli va ixcham shaklda ifodalash, hayotiy tajriba va axloqiy qadriyatlarni o‘rganishga imkon yaratadi. Maqollar avlod-dan-avlodga og‘zaki va yozma nutq orqali yetib, ingliz tilining frazeologik va paremiologik boyligining muhim qismi sifatida shakllangan. Ularning badiiy xususiyatlari maqol-larning qisqa, lo‘nda va obrazli tuzilishida namoyon bo‘ladi. Badiiylik maqollarda nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki ularning mazmunini kuchaytirib, esda qolishini osonlashtiradi hamda nutqdagi ta’sirchanlik darajasini oshiradi. Ingliz naql-maqollari nafaqat til boyligini, balki madaniy merosni ham boyitadi.

Adabiyotlar

1. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004.
2. Mieder W. Behold the Proverbs of a People: Proverbial Wisdom in Culture, Literature, and Politics. – Jackson: University Press of Mississippi, 2014.
3. Taylor A. The proverb. – Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Norrick N. R. Proverbs as set phrases. // *Phraseology: An International Handbook of Contemporary Research*. Berlin: De Gruyter, 2014.
5. Honeck R. P. A Proverb in Mind: The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom. – New York: Psychology Press, 2016.
6. Manser M. H. The Penguin Dictionary of Proverbs. – London: Penguin Books, 2019.
7. Gibbs R. W. Metaphor Wars: Conceptual Metaphors in Human Life. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017.
8. Simpson, P. Stylistics: A Resource Book for Students. – Routledge. 2004.